

## **IBORALAR EMOTSIONAL-EKSPRESSIVLIKNI YUZAGA CHIQRUVCHI UNSUR SIFATIDA**

**Soliyeva Gulira'no Abdulhay qizi**  
Andijon davlat universiteti magistranti

***Annotatsiya:** Maqolada iboralarning kontekstda emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi yetakchi unsurlardan biri ekanligi Erkin Vohidov she'rlari misolida asoslangan. Bundan tashqari ayrim so'z birikmalarining qo'shimcha munosabat ifodalashi xususida ham fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** emotsional-ekspressivlik, frazema, birikma, tagma'no, kontekst.*

Tilda ekspressivlikni ifodalovchi elementlardan biri bo'lgan iboralar o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. A.V.Kunin "Frazeologik birliklarning signifikativ, denotativ ma'nolari ichida konnotativ ma'no alohida o'rin egallaydi. Ma'nolarning konnotativ jihatlari frazeologizmlarning potensial imkoniyatlarini belgilaydi"<sup>1</sup>, deb ta'kidlaydi. Ammo mazkur ta'rif barcha frazemalarga birdek mos kelmaydi. Iboralarning kontekstda konnotativ ma'no anglatishidagi potensial kuch hamma iborada har xil bo'ladi. Saida Mahsumova "Badiiy matnning konnotativ xususiyatlari" nomli monografiyasida iboralarni ekspressivlikni ifodalash xususiyatiga ko'ra quyidagi turlarga ajratadi:

1. Emotsional-ekspressivlikni kuchli darajada ifodalaydigan iboralar.
2. Emotsional-ekspressivlikni kuchsiz darajada ifodalaydigan iboralar.
3. Emotsional-ekspressivlikni ifodalamaydigan iboralar.

Emotsional-ekspressivligi kuchli bo'lgan iboralar ekspressivlik bo'yog'i bo'rtib turishi bilan keyingi tur iboralardan ajralib turadi. Masalan: boshi osmonga etdi, tepa sochi tikka bo'ldi, yuragi yorildi kabi.<sup>2</sup>

Emotsional-ekspressivligi kuchsiz bo'lgan iboralar birinchi tur iboralarga nisbatan ekspressivlikni kuchsiz darajada ifodalovchi iboralardir. Misol uchun boshi qotdi, obro'yi tushdi, oq-qorani tanidi iboralarini keltirish mumkin.

Erkin Vohidovning bir qancha she'rlarida iboralardan ekspressivlik, she'r ta'sir kuchini oshirish uchun foydalangan quyida ana shunday she'rlarni tahlil qilamiz.

Ko'z oldidan o'tar qirq birinchi yil,  
Maskov bo'sag'asida  
Achchiq qahraton

<sup>1</sup> Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. – М., 1987. – С.44.

<sup>2</sup> Махсумова С. Бадий матнинг коннотатив хусусиятлари (Эркин Воҳидов асарлари мисолида). – Тошкент, 2014. – Б.53.

Agar qulatmasa daydi o‘q sabil  
Berlindan qaytardi bo‘lib qahramon.  
Eslar, har yon olov,  
O‘t ichra dunyo  
Majruh gavdalaru uzilgan boshlar...  
“ Yurt tinch bo‘lsin,  
Bir gap bo‘lsa mabodo,  
Bardosh berarmikan  
Hozirgi yoshlar!”

Ko‘z oldidan o‘tmoq iborasi orqali shoir bir lahzada asar qahramonini urush yillariga olib boradi. Metaforaning o‘ziga xos namunasi bo‘lgan achchiq qahraton esa uning daxshatini esga soladi. Achchiq so‘zi aslida sifat so‘z turkumi bo‘lib, og‘izni kuydiruvchi ta‘mni eslatsa, bu yerda asar qahramoninig yurak-bag‘rini kuydiryapti. Ot va sifat so‘z turkumining birikuvidan hosil bo‘lgan yana bir ma‘no ko‘chishi o‘quvchi e‘tiboridan chetda qolmaydi. Qayerdandir kutilmaganda kelib qolgan bu daydi o‘q qahramon hayotini tubdan o‘zgartirib yubordi. U qahramon bo‘lishi mumkin edi, ammo mana shu o‘q uning hayotida o‘chmas jarohat qoldirdi. Urushning bor dahshatini tasvirlash uchun esa yozuvchi o‘t ichra dunyo birikmasini qo‘llaydi, bunga ham qanoat qilmay atrofdagi qo‘rqinchili holatni majruh gavdalaru, uzilgan boshlar birikmalari bilan to‘ldiradi.

Yana der:

“ Bo‘sh qolsak tunlar bo‘lib jam,  
“Chordarvesh” o‘qirdik qurshab tanchani.  
Bular tanimaydi Huvaydoni ham,  
Erta-yu kech o‘ylar kino, tansani.  
Aqli kirarmikan bularning bir kun,  
Kim biladi qachon quyula boshlar!  
Og‘ir kun ko‘rmadi.  
Balki shuning-chun  
Yengilroq o‘sdimi hozirgi yoshlar!”

Fe‘l so‘z turkumiga mansub bo‘lgan “tunlar bo‘lib jam” birikmasi ham o‘quvchini u davrlardagi birdamlik, oqibatlilik bilan tanishtirsa, qurshab tanchani birikmasi esa o‘sha davr sharoitini ochib beradi. Tancha- ustiga ko‘rpalar tashlangan ichiga isitish uchun cho‘g‘ solingan sandal. Aqli kirmoq fe‘lli birikmasi orqali esa hozirgi kun yoshlaridan norozilik mazmuni ifodalangan. Shoir quyula boshlamoq iborasini misrada keltirish bilan hali ulardan umidi borligini ifodalaydi. O‘g‘ir va yengil so‘zlarini qo‘llab antiteza san‘atini ishlatgan va bu bilan o‘tmishdagi qiyinchiliklardagi shukr, bugungi tinchlik zamonida esa to‘qlikka sho‘xlik qabilida javob qilayotgan yoshlardan arz qiladi.

Xulosa qilinsa iboralar qo‘shimcha hissiy ekspressiv munosabat bildirishi jihatidan kontekstda ahamiyatlidir. Erkin Vohidov she‘rlarida qo‘llangan ibora va kontekstual birikmalar tagma‘noga ishora qilish va uni yuzaga chiqarishda muhim funktsiya bajaradi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Кунин. А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М., 1986. – 336 с.
2. Махсумова С. Бадиий матннинг коннотатив хусусиятлари (Эркин Воҳидов асарлари мисолида). – Тошкент, 2014. – 133 б.
3. Мамаражабова З. Н. Ўзбек тилида сифатларнинг коннотатив маънолари: Филол. фанлари номзоди ... дис. автореф. – Тошкент, 2004. – 24 б.
4. Маматов А. Фразеологизмларнинг коннотатив маънолари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1988. – № 2. – Б. 63–65.
5. Келдиёрова Г. Ўзбек бадиий нутқида антитеза (Э. Воҳидов шеърляти мисолида) : Филол. фанлари номзоди ... дис. автореф. – Тошкент, 2000. – 26 б.
6. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007. – 123 б.
7. Воҳидов Э. Сайланма. Учинчи жилд. Умрим дарёси. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 400 б.